

ANIQ VA TABIIY FANLAR

O'ZBEKISTONNING TABIATI, TABIIY BOYLIKLARI VA ULARNI MUHOFAZA QILISHNI O'RGANISH

*G'ulomova Kubaro, Buxoro Davlat Pedagogika Instituti Tabiiy fanlar kafedrası
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi talabasi*

Anotatsiya. Inson tabiatdan oladigan barcha moddiy boyliklar yer osti va yer usti boyliklari suv, havo, tuproq, o'simliklar, hayvonot olami va boshqalar tabiiy resurs(boylik) hisoblanadi. Shuni nazarda tutgan holda, ushbu maqola tabiat va tabiiy boyliklar haqida malumotlar va ularga insonning qay darajada ta'siri va bu ne'matlardan samarali foydalani O'zbekiston misolida ko'rib chiqishingiz mumkin.

Kalit so'zlar; O'zbekistonning Qizilkitobi, Milliy bog'lar, biosfera rezervatlari, zakazniklar, tugaydigan va tugamaydigan tabiiy resurslar, quyosh radiatsiyasi, kosmik resurslar va shamol energiyasi.

Гуломова Кубаро, студентка факультета естественных наук Бухарского государственного института по специальности «География и основы экономических знаний».

Аннотация. Все материальные блага, которые человек получает природы, подземные и поверхностные богатство, вода, воздух, почва, растения, животный мир и.т.д. являются природными ресурсами (богатство). Имея этой виду, в этой статье представлена информация о природе и природных ресурсах, а также о степени влияния на них человека, и вы можете рассмотреть эффективное использование этих блага примере Узбекистана.

Ключевые слова; Красная книга Узбекистана, Национальные парки, биосферные заповедники, исчерпаемые и неисчерпаемые природные ресурсы, солнечная радиация, космические ресурсы энергия ветра.

Gulomova Kubaro, a student of the Department of Natural Sciences of the Bukhara State Pedagogical Institute, majoring in Geography and Basics of Economic Knowledge.

Annotation. All the material wealth that man gets from nature, underground and surface wealth, water, air, soil, plants, animal world, etc, are natural resources(wealth). With this in mind, this article provides information about nature and natural resources, and the extent to which humans have influenced them, and you can consider the effective use of these blessings in the case of Uzbekistan.

Key words; Red book of Uzbekistan, National parks, biosphere reserves, exhaustible

and non-exhaustible natural resources, solar power, space resources and wind energy.

Kirish:

O'zbekiston tabiati O'zining turli-tuman va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ozbekiston hududining katta qismi quruq va yarim quruq cho'llardan iborat, jumladan, dunyodagi eng yirik cho'llardan biri bo'lgan Qizilqum cho'li. Bundan tashqari, Farg'ona vodiysi kabi serhosil vodiylar va Tyan-shan hamda Hisor-Oloy tizmalari kabi tog'li hududlarga ega, bu yerlar betakror tabiati va boy biologik xilma-xilligi bilan mashhur.

Umuman olganda, tabiiy resurslar ikki guruhga bo'linadi va ular ham o'z navbatida guruhlarga bo'linadi.

Tugaydigan tabiiy resurslar – Tiklanadigan va tiklanmaydigan. Tiklanadigan tabooy resurslarga tuproq qoplami, o'simliklar, hayvonot dunyosi va suv kiradi. Tiklanmaydigan resurslarga yer osti tabiiy boyliklari kiradi.

Tugamaydigan tabiiy resurslar esa kosmikva Iqlim resurslariga bo'linadi. Kosmik resurslar bu quyosh radiatsiyasi, iqlim resurlari esa atmosfera havosi va shamol energiyasihisoblanadi.

Mamlakatning suv resurslariga keladign bo'lsak, Amudaryo va Sirdaryo kabi yirik daryo qishloq xo'jaligi va ekologik tizimlar uchun juda muhim ahamiyatga ega. Lekin, Orol dengizi inqirozi kabi ekologik muammolar suv resurslarining kamayishiga va tabiiy muhitga jiddiy zarar yetishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston tabiati o'ziga xos o'simlik va hayvonot dunyosiga ega. Qizilqum cho'lida sayg'oq kabi noyob hayvonlar uchrasa, tog'larda bo'ri va tog' echkisi kabi yovvoyi hayvonlar yashaydi. O'zbekiston yo'qolib ketgan va yo'qolib borayotagn o'simlik va hayvonlarni qayd etib borish uchun Qizil kitobni tashkil etgan. Qizil kitobga kiritilgan ko'plab noyob o'simlik va hayvonlar mavjud bo'lib, ularni saqlab qolish uchun maxsus qo'riqxonalar va milly bog'lar tashkil etilgan.

1963-yilda Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (IUCN) tomonidan chop etildi. Xalqaro qizil kitob doimo yangilanadi, uni tuzish bilan bir guruh olimlar shug'ullanadi. O'zbekiston o'zining milliy qizil kitobiga ega va Xalqaro muhofaza qilish ittifoqiga a'zo.

-Nima uchun kitob yashil emas? Axir, bu tabiat haqida-ku.

-Qizil rang xavfli belgi hisoblanadi! Bu jamoatchilik e'tiboriniyo'qolib ketayotgan turlarning muammosiga kam e'tibor berayotganligiga jalb qilishga urinishdir.

Misol uchun: XX asrning boshlarida, 100 yil oldin, Amudaryo daryosining irmoqlari va qamishlarida yo'lbarslar bor edi. Ov va yashash joylarini qisqarishi tufayli, yo'lbarslar asrning o'rtalariga kelib yo'qola boshladilar. Asrning oxoroga kelib, Turon yo'lbarslari g'oyib bo'ldilar va tog' o'rmonlari va kiyiklar xavf ostida qoldilar. Qizilkitob turlari hayvonlari va o'simliklari ovlash va yo'q qilish katta miqdorda jarimaga tortiladi. Noyob hayvonlarni va o'simliklarni himoya qilish uchun zapovedniklar, milliy tabiat bog'lari, zakazniklar va zaxiralar yaratilgan. Olimlar noyob o'simliklarning urug'larini yig'adilar va

gerbaryilarini to'playdilar va ularni botanika bog'larida o'stiradilar, keyin ularni tabiatga chiqaradilar.


Demak, Qizilkitobga hayvon yoki o'simlikning tashqi ko'rinishi, tarqalish xaritasi, xavfsizlik holati, qolgan soni, tashqi ko'rinishiga sabab bo'luvchi omillar, saqlash va naslchilik markazlari, himoy choralari va yashash hayot tarzilar kabi ma'lumotlar beriladi.

Milliy bog' va qo'riqxonalaridan Nurato-Qizilqum biosfera rezervati, Zomin milliy bog'I kabi joylar O'zbekistonning tabiiy boyliklarini asrashga xizmat qiladi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi uchun esa turizm va ekologiya sohalari uchun katta ahamiyatga ega.

..O'zbekiston tabiativa tabiiy boyliklarini muhofaza qilish – inson uchun zarur bo'lgan qazilma boyliklaridan oqilona foydalanish, suv va havoni toza saqlash, tuproqni eroziyadan saqlash, o'simlik va hayvonot dunyosini tabiiy holicha asrab qolib, qayta tiklashni hamda xushmanzara joylar(sharshara, buloq,va boshqalar)ni tabiiy holicha saqlash kabilarni o'z ichiga oladi.

Lekin hozir tabiatga inson xo'jaligi faoliyatining ta'siri natijasida respublikaning ba'zi okruglari (Orolbo'yi, Surxon vodiysi, Quyi Zarafshon va Quyi Amudaryo)da ekologik holat yomonlashib borayotganini ta'kidlab o'tishimiz lozim. O'zbekiston havosining ifloslanishida energetika, neft-gaz sanoati, transport, kimyo sanoati, metallurgiya sanoati, maishiy-komunal xo'jalikning hissasi kattadir.



Shuningdek, O'zbekistonda suvni ifloslanishiga sabab bo'luvchi tarmoqlarning 72%i sug'orish yerlari uchun, 18%i sanoatda va qolgan 10%i komunal xizmatlardan ifloslanadi.

Respublikamiz havosini toza saqlash uchun korxonalarda zamonaviy tozalovchi inshootlarqurish zarur. Bunda ifloslovchi moddalarni ushlab qolib, uardan qayta foydalqanish imkoniyati vujudga keladi. Mamlakatimiz daryolari sanoat korxonalari, maishiy xizmat ko'rsatish, sog'lomlashtirrish tashkilotlari, parrandachilik majmuyi va chorvachilik fermalridan chiqqan suvlar hamda zovur suvlari bilan ifloslanmoqda.

Suv boyliklarini toza saqlashdagi asosiy vazifa o'sha korxonalardan chiqayotgan iflos

suvlarni tozalab, zararsizlantirib, so'ngra suv havzalariga tashlashga erishishdan iborat.

O'zbekistonning tuproq qatlamini eroziyadan saqlash uchun, uning unumdorligini tiklash uchun kurashish kerak. Buning uchun ekinlarni sug'orish qoidasiga rioya qilish, sug'orishning ilg'or usullaridan foydalanishga o'tish zarur. Ekinlarning hosildorligini oshirish uchun ko'proq organik o'g'itlardan foydalanib, qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurashishga erishish zarur hisoblanadi.

Xulosa:

O'zbekiston o'rining tabiat boyliklari va resurslariga boyligibilan ajralib turadi. Ushbu boyliklarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish esa xalqimiz kelajagini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Qizilkitobga kiritilgan turlarni himoya qilish, tabiat bog'lari va qo'riqxonalarini rivojlantirish, shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini, jumladan quyosh va shamol energiyasini keng qo'llash – bu kelajakuchun barqaror qadamdir. Resurslarni saqlab qolish uchun ta'lim, ekologik xabardorlikni oshirish va samarali boshqaruv tizimlarini joriy qilish zarur. O'zbekiston o'z tabiiy boyliklarini saqlash orqali nafaqay iqtisodiy rivojlanishni, balki ekologik barqarorlikni ham ta'minlash yo'lida ulkan imkoniyatlarga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbekistonning tabiiy resurslari" A.Ergashev.
2. O'zbekistonning Milliy "Qizil kitob"i.
3. "O'zbekistonda ekoturizm".
4. <https://geografiya.uz/ozbekiston-tabiiy-geografiyasi/11722-ozbekistonning-tabiiy-boyliklari-va-ularni-muhofaza-qilish.html>
5. <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/ekologiya/o-zbekistonning-tabiiy-boyliklari-va-ularni-muhofaza-qilish>